

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR FOYDALANISH
SAMARADORLIGI

Panjiyeva Muattar

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi

Meliboyeva Sojida O‘ktamovna

Pirmatova Kamola Abdigapurovna

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi III bosqich 3BT-21 guruh talabalari

meliboyevasojida@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada interfaol metodlar turlari, ularning ta’limdagi o‘rnini, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalar haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, interfaol metodlar, “Aqliy hujum” metodi, “Nilufar gul” metodi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о видах интерактивных методов, их роли в обучении, педагогических технологиях, гарантирующих эффективность образовательного процесса.

Ключевые слова: обучение, воспитание, интерактивные методы, метод «Мозговой штурм», , метод «Цветок лилии».

Abstract: This article provides information on the types of interactive methods, their role in education, pedagogical technologies that guarantee the effectiveness of the educational process.

Key words: education, upbringing, interactive methods, “Brainstorming” method, “Lily flower” method.

Agar bolalar erkin fikrlashni o’rganmasa,

Berilgan ta’lim samarasini past bo’lishi muqarrar.

Islom Abdug‘aniyevich Karimov

Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari davrida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O‘qitish jarayonida interfaol metodlarini qo’llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning ta’limiy, didaktik, tarbiyaviy, jihatidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan, ularning qiziqishlarini orttiradigan turli-tuman, zamonaviy metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o’sishiga olib keladi. Buning uchun o‘qituvchilar juda ko‘p o‘qishlari va o‘rganishlari kerak bo‘ladi. Bolalar bizning, Vatanimizning kelajagidir. Vatanimizning gullab-

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

yashnashi ularning qo‘lidadir. Har tomonlama yetuk,bilimdon,komil insonni tarbiyalash bizning vazifamizdir.

“Interfaol” so‘zi ingliz tilida “interact” so‘zidan olingan bo‘lib,” inter”— o‘zaro ikki taraflama, “act”— harakat qilmoq degan ma’nolarni anglatadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlashga,mustaqlil fikrlashiga, dunyoqarashini kengaytirishiga ko‘maklashadi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b.

Interfaol ta’lim strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinamazinga”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg’ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko’rinishda ifodalananishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko’proq jihatdan ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.¹

«Aqliy hujum» metodi biror muammo bo‘yicha ta’lim o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to’plab, ular orqali ma’lum bir xulosaga keluvchi metod hisoblanadi. «Aqliy hujum» metodining yozma va og‘zaki shakllari bor. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikri og‘zaki,takliflari og‘zaki bayon etiladi. O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq,qisqa va lo‘nda tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga o‘quvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar.

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali usuli hisoblanadi,”Nilufar gul” ko’rinishiga ega. Asos va unga birikkan to‘qqizta bargdan “gulbarg”larni o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal qilinadi. O‘quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash,ichki mohiyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo’llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Hal etiladigan masala aniqlashtiriladi.
2. O‘quvchilar topshiriq mazmuni va uni yechish shartlari bilan tanishtiradi.
3. Guruh yoki juftlik a’zolari markaziy to‘rtburchakda asosiy muammoni qayd etadi.
4. Guruhlar masalaning yechimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to‘rtburchak atrofida sakkizta shunday qo‘sishma chizmalarni hosil qiladi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

5. Qo'shimcha chizmalardagi g'oyalar gulning "gulbarg" lariga, ya'ni shunday alohida majmuaga olib chiqadi.
6. Yordamchi chizmalardagi yetakchi muammo atrofidagi "gulbarglar"da xususiy masala va yechimlar aks ettiriladi.
7. O'rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin.
8. Har bir guruh yoki juftlik a'zolari topshiriq yuzasidan o'z yechimlarini taqdimot tarzida bayon etadi.
9. Guruhlarning yechimlari muhokama qilinib, eng to'g'ri variant aniqlanadi.
10. O'qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg'ulotni yakunlaydi.²

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida turli xil interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini, o'quvchilarining bilim salohiyatini, ularning qiziqishlarini, savodxonligini oshirishga, olingan bilimlarni takrorlash hamda mustahkamlashga yordam beradi. Buning uchun o'qituvchilar dars jarayonida samarali metodlardan foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017.
2. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma)". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.

² D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma)". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013